

“O‘ZBEKISTONDA UCHINCHI RENESSANS VA INNOVATSION JARAYONLAR JURNALI”

20-Avgust, 2026-yil

MILLIY G‘OYA VA MA’NAVIYAT ORQALI YOSHLAR TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISH

Nizomiy nomidagi O‘zMPU Tarix fakulteti Milliy g‘oya ma’naviyat asoslari va huquq ta’limi yo‘nalishi 1-bosqich talabasi

Sattorov Ilhom

Annotatsiya: Ushbu maqolada, Milliy g‘oyani yoshlar ongida shakllantirish, ma’naviyat va ma’rifat orqali yosh avlodni yetuk barkamol avlod sari yetishishiga ko‘maklashish ilmiy-nazariy asoslar bilan yoritib beriladi. Xususan, yoshlar tarbiyasini takomillashtirishda ma’naviyat va adabiyot qanchalik muhim o‘rin tutishi, oqilona jamiyatimizning milliy istiqlool mafkurasiga bo‘lgan ehtiyoji va ma’naviy bo‘shliqni kelib chiqishini oldini olishga qaratilgan strategik islohotlar tahlil qilinadi.

Kalit so‘zlar: Milliy g‘oya, ma’naviyat, ma’rifat, mafkura, mafkuraviy bo‘shliq, strategik, renessans, konsept, innovatsiya, sivilizatsiya, intellektual.

Abstract: This article describes the essence of using modern information and communication technologies and electronic educational resources in the process of teaching students in higher education institutions, as well as the advantages and prospects of their use in the educational process. Furthermore, the article highlights the issues of increasing students' cognitive activity through pedagogical technologies and interactive methods in the organization of training sessions.

Keywords: National idea, spirituality, enlightenment, ideology, ideological vacuum, strategic, renaissance, concept, innovation, civilization, intellectual.

Аннотация: В данной статье описывается содержание использования современных информационно-коммуникационных технологий и электронных образовательных ресурсов в процессе обучения студентов в высших учебных заведениях, преимущества и перспективы их использования в учебном процессе. Также в статье освещены вопросы повышения познавательной активности студентов с помощью педагогических технологий и интерактивных методов при организации учебных занятий.

Ключевые слова: Национальная идея, духовность, просвещение, идеология, идеологический вакуум, стратегический, Ренессанс, концепт, инновация, цивилизация, интеллектуальный.

Ma’naviy jihatdan yuksak rivojlangan insonni tarbiyalash, ta’limni va maorifni yuksaltirish, milliy uyg‘onish g‘oyasini ro‘yobga chiqaradigan yangi avlodni voyaga yetkazish davlatimizning eng muhim vazifalaridan biri bo‘lib qoladi. Jamiyat tez rivoj topadi. Yuksak ma’naviy burchlar kecha yoki bugun bugun o‘ylab topilgan emas, ular insoniyatning necha-necha asrlik hayotiy tajribasi davomida yuzaga kelgan. Ma’naviyat insonga ona suti ,

ota namunasi o‘giti bilan singib kelgan. Ayrim yoshlarimizda: “ma’naviyat nima uchun kerak?” degan fikrlar uyg‘onadi. Keling avvalom bor shu savollarga javob beraylik. Ma’naviyat insonni ruhiy poklanish va yuksalishiga da’vat etadigan, inson ichki olamini boyitadigan, uning imon-irodasini, e’tiqodini mustahkamlaydigan, vijdonini uyg‘otadigan qudratli kuchdir. Moddiy narsalar insonga jismoniy oziq va quvvat bersa, ma’naviyat unga ruhiy oziq va qudrat bag‘ishlaydi. Faqat moddiy jihatdan ta’minlanish bilan kifoyalanish ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xosdir. Yuqorida aytilgan “ongsiz va ruhsiz maxluqlarga xosdir” so‘ziga urg‘u bersak, qanchalik haqiqatga yaqin so‘zlar, shu kungacha biron bir jamiyat yoki biron bir millat ma’naviyat va milliy g‘oyasiz yashamagan bundan keyin ham yashamaydi. Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa, uning joni va ruhi ma’naviyatdir. Biz yoshlar yaratayotgan Yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizim g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda avvalo fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan. Muhtaram Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan “Uchinchi Renessans(Uchinchi Uyg‘onish Davri) g‘oyasi va milliy taraqqiyot konsepti”ning asosiy tayanch ustunlaridan biri sifatli ta’lim, ilm fan va innovatsiyalar belgilangan. “Biz uchun Uchinchi Renessansning poydevori bu ta’lim va tarbiya ilm va innovatsiyadir” deydi muhtaram Prezidentimiz Islom Karimov. Kelajagimiz yangi mafkuraga va yangi ideaga ega bo‘lgan ijodkor, salohiyatli, qobiliyatli yoshlarimizning qo‘lida turibdi. Tarbiyaning ma’naviy-ma’rifiy vazifalari haqida gap borganda, ommaviy axborot vositalari fan, adabiyot, san’atning bunyodkor g‘oyalarini amalga oshirishdagi o‘rni kabi omillar tutiladi. Ayniqsa bu jarayonda ijtimoiy fanlar to‘plami alohida o‘rin tutadi. Bu ijtimoiy fanlarning mualliflari milliy va umuminsoniy qadriyatlar ezgu va bunyodkor g‘oyalar, jahon sivilizatsiyasining ilg‘or ilmiy namunalari aks etgan bilimlarni yoshlar tarbiyasida unumli qo‘llashlari kerak. Ta’lim muassasalarida bilim olayotgan yoshlar o‘rtasida olib borilayotgan g‘oyaviy tarbiya jarayonlarida quyidagilarga e’tibor qaratilish lozim :

1. eng avvalo yoshlarni milliy g‘oya bilan qurollantirish,
2. hayot hodisalarini, dunyoviylik, ilmiylik qoidalari asosida tahlil qilish va baholashga odatlantirish,
3. o‘z qarashlarini himoya qilishga o‘rgatish,
4. buzg‘unchi mafkuralarga har doim, hamma joyda murosasiz bo‘lishga tayyorlash zarur,
5. yoshlarni kitobxonlik tadbirlariga, qiziqarli zakovatlar hamda intellektual o‘yinlarga jalb etish,
6. tariximizdagi ulug‘ siymolar va davlat arboblari hayoti va o‘tmishiga nazar tashlagan holda huddi ulardek bo‘lishlariga intilish tuyg‘ularini mujassamlashtirish,
7. yoshlarda Vatanga bo‘lgan muhabbatni uyg‘otish, shu kabi turli xil harbiy poradlar, ko‘riklarga jalp etish, shuningdek harbiy sport musobaqalarini ko‘proq yo‘lga qoyish lozim.

Ma’lumki, milliy g‘oya - bu jamiyatni birlashtiruvchi kuchdir, ma’naviyat va adabiyot orqali yoshlar ongiga singdirilgan milliy g‘oya ularni o‘zlikni anglashga undaydi. Ma’rifatparvar jadid bobolarimiz ta’kidlaganidek, “Tarbiya biz uchun yo hayot - yo mamot,

yo najot - yo halokat, yo saodat – falokat masalasidir”. Bu fikr bugungi kunda ham o‘z dolzarbligini yo‘qotmagan. Aytib o‘tilganidek tarbiya - bu hayotni, insonda rivojlana olgan ezgu fazilatlarni uning ichki va tashqi axloqiga mos va xos bo‘lgan hodisalarni hamda o‘ziga bog‘liq bo‘lgan holatlarni o‘z atrofida namoyon etadi. Hattoki bir insonga to‘g‘ri salom berish ham insonga xos bo‘lgan ezgu, axloqiy fazilat hisoblanadi. Mustahkam, barqaror tarbiya orqali ma‘naviyat o‘z cho‘qqisining yuqori qismini band etadi. Xulosa qilsak, bularning barchasi yoshlarimizning bunyodkor g‘oyalarini mustahkamlashga, san‘at adabiyot va ijtimoiy fanlarga bo‘lgan qiziqishini orttirishga, bilim ko‘nikmalarini o‘zlarida yanada chuqurroq o‘zlashtirishiga, Vatanga bo‘lgan mehrini, muhabbatini oshishiga va eng asosiysi yoshlar ongida mafkuraviy bo‘shliq yuzaga kelishini oldini olishga hamda begona yod g‘oyalarni ongida shakllanishiga yo‘l qo‘ymaslikka xizmat qiladi. Agar yoshlar qalbida adabiyotga muhabbat va milliy qadriyatlariga hurmat shakllansa, jamiyat ma‘naviy inqiroz, kabi yomon hodisalardan yiroq bo‘ladi. Yoshlar o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini yuksaltirish - ularni mustaqil va tanqidiy fikrlashga o‘rgatadi. Badiiy adabiyot bilan doimiy muloqotda bo‘lgan yoshlar axborot maydonidagi turli yolg‘on ma‘lumotlarga osonlikcha berilmaydi. Xulosa shuki, adabiyot yoshlarga nafaqat o‘tmishni o‘rgatadi, balki ularni kelajakning ma‘naviy xatarlaridan himoya qiladi. Ma‘rifatli insonni turli xil zararli yot g‘oyalar bilan chalg‘itib bo‘lmaydi. Yoshlar tarbiyasini takomillashtirish uchun ta‘lim dargohlarida miliy adabiyot namunalarini faqat yodlatish emas, balki ulardagi milliy g‘oya va ma‘naviy yukni tahlil qilish tizimini kuchaytirish zarua va darkor. Zero, adabiyot bilan sug‘orilgan ma‘naviyat – yoshlarni yuksak marralar sari yetaklovchi eng asosiy kuch bo‘lib xizmat qiladi. Umuman olganda, milliy g‘oya bilan sug‘orilgan ma‘naviy-ma‘rifiy islohotlar yosh avlodni "madaniyat" ning salbiy oqibatlaridan asrab qoladi. Zero, ma‘naviyati boy, adabiyotni sevgan va milliy o‘zligini anglagan yoshlar yangi Renessans poydevorini qurishga qodir bo‘lgan eng katta kuchdir. Shuningdek, tarbiya jarayonini tizimlashtirishda oiladagi ma‘naviy muhit va adabiy an‘analarning o‘rni beqiyosdir. Maqolada tahlil qilinganidek, milliy g‘oya avloddan-avlodga adabiyot va ma‘naviy qadriyatlar orqali o‘tadi. Shunday ekan, ta‘lim tizimi, oila va ijtimoiy muhitning uyg‘unligi yoshlar ma‘naviyatini yuksaltirishning eng samarali mexanizmi bo‘lib qoladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti Islom Karimovning – “Yuksak ma‘naviyat yengilmas kuch” asari.
2. O‘zbekiston Respublikasi prezidenti Shavkat Mirziyoyev – “Ma‘naviy ma‘rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish, bu borada davlat va jamoat tashkilotlarining hamkorligini kuchaytirish masalalari bo‘yicha videoselekt yig‘ilishi materiallari”dan.
3. Shavkat Mirziyoyev – “Uchinchi Renessans” haqidagi nutqi .
4. Marhabo Sobirova , Baxtiyor Abdusattorov “Milliy g‘oya tarixi va nazariyasi”.
5. S.H. Nosirxo‘jayev – “Ma‘naviyat asoslari”.